Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Veterinariya profilaktikasi va davolash" fakulteti, 60840100-veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi 5-bosqich 504-guruh talabalari uchun "Veterinariya toksikologiyasi" fanidan assistent M.A.Sharapov tomonidan tayyorlangan "Mikotoksinlar diagnostikasi" mavzusidagi laboratoriya mashg'uloti matniga

T A Q R I Z

Muallif M.A.Sharapov tomonidan "Mikotoksinlar diagnostikasi" mavzusida tayyorlangan laboratoriya mashg'uloti matni "Veterinariya toksikologiyasi" fanidan 60840100-veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi 504-guruh talabalari uchun mo'ljallangan o'quv dasturi asosida yozilgan. Mashg'ulot matnida "Mikotoksinlar diagnostikasi" mavzusi to'liq va izchil yoritilgan.

Muallif mashg'ulotda mikotoksikozlarning kelib chiqish sabablari, asosiy mikotoksinlarning (aflatoksinlar, ohratoksin A, zearalenon, T-2 toksin, satratoksinlar va boshqalar) tarqalishi hamda hayvonlar organizmiga zaharli ta'siri, ozuqa va ozuqaviy xomashyo namunalarini olish, tayyorlash va tekshirish usullari, mikotoksinlarni laboratoriya sharoitida aniqlash va tashxis qo'yish tartibi bo'yicha zarur ma'lumotlarni keng qamrab olishga harakat qilgan. Shuningdek, mikotoksikozlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish chora-tadbirlari ham amaliy yo'nalishda bayon etilgan.

Muallif mavzuni to'liq yoritib, talabalar uchun tushunarli, ilmiy asoslangan va ketma-ket tarzda bayon etgan. Mashg'ulot matni talabalarning mustaqil ishlashi va olgan bilimlarini amaliyotda qo'llashi uchun qulay tuzilgan bo'lib, undagi ma'lumotlar aniq va mukammal keltirilgan.

Ushbu laboratoriya mashg'uloti talabalarda mavzu bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka shakllantirib, bo'lajak veterinariya mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligida muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, M.A.Sharapov tomonidan 60840100-veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha "Veterinariya toksikologiyasi" fanidan yozilgan "Mikotoksinlar diagnostikasi" mavzusidagi laboratoriya mashg'uloti matnini ijobiy baholayman va o'quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Veterinariya farmatsevtikasi, farmakologiya va toksikologiya" kafedrasi katta o'qituvchisi v.f.f.d., (PhD).: **T.T.Xatamov**

ning imzosini
TASDIQLAYMAN
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
ilmiy ishlar bo'limi boshlig'i

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Veterinariya profilaktikasi va davolash" fakulteti, 60840100-veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi 5-bosqich 504-guruh talabalari uchun "Veterinariya toksikologiyasi" fanidan assistent M.A.Sharapov tomonidan tayyorlangan "Mikotoksinlar diagnostikasi" mavzusidagi laboratoriya mashg'uloti matniga

TAQRIZ

Taqrizga taqdim etilgan "Mikotoksinlar diagnostikasi" mavzusidagi laboratoriya mashg'uloti matni veterinariya amaliyotining dolzarb muammolaridan biri — ozuqalarning mog'or zamburug'lari va ularning toksinlari bilan ifloslanishiga bag'ishlangan. Chorvachilik va parrandachilik xo'jaliklarida ozuqa bazasining xavfsizligi hayvonlar salomatligi hamda olinadigan mahsulot sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatgani bois, mavzu to'g'ri va mavsumga mos o'z vaqtida tanlangan.

Matnda mikotoksin va mikotoksikoz tushunchalari, ularni keltirib chiqaruvchi parazit va saprofit zamburug'lar, zamburug'lar rivojlanishi uchun qulay sharoit (ozuqa namligining 16 foizdan oshishi, 26–32°C harorat), mikotoksinlar tasnifi (aflatoksinlar, ohratoksinlar, zearalenon, T-2 toksin, satratoksinlar) hamda aspergillyoz, ohratoksikoz, fuzariotoksikoz va staxibotriotoksikozning kechishi izchil bayon etilgan. Ozuqani qizdirish zamburug'ni yo'qotsa-da, toksinni zararsizlantirmasligi haqidagi ma'lumot amaliyotda uchraydigan keng tarqalgan noto'g'ri tushunchani bartaraf etishga xizmat qiladi.

Mashg'ulotning laboratoriya qismi tashxis qo'yish bosqichlariga muvofiq tuzilgan: namuna olish va organoleptik baholash (hid va rang bo'yicha), mikroskopik hamda mikologik tekshiruv (Chapek va Saburo oziqa muhitlari), infuzoriyalar (paramesiyalar) yordamida aniqlash, quyonlar terisi va oq sichqonlarda biosinov o'tkazish (GOST 31674-2012), shuningdek, IFT va YUSSX kabi zamonaviy yuqori sezgir usullar keltirilgan. Har bir usulning imkoniyati va cheklovi, xususan, xona harorati past bo'lganda paramesiyalar harakati sekinlashib, noto'g'ri xulosa chiqarishga sabab bo'lishi ko'rsatib o'tilgani talabalarga haqiqiy laboratoriya sharoitini tasavvur qilishda yordam beradi.

Tashxis markazlarining toksikologiya laboratoriyalarida ozuqa, omuxta yem, pichan, senaj va silos namunalari aynan shunday ketma-ketlikda tekshiriladi, shu bois matndagi tavsiyalar amaliy faoliyat talablariga mos keladi. Bo'lajak veterinariya shifokorlari ushbu mashg'ulot orqali ozuqani chorvaga berishdan oldin laboratoriya tekshirishidan o'tkazishi zarurligini chuqur anglab yetadilar.

Laboratoriya mashg'uloti matni mazmuni, ilmiy-uslubiy saviyasi va amaliy yo'nalishi jihatidan qo'yiladigan talablarga javob beradi. Uni talabalga o'quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti
"Toksikologiya va terapiya" laboratoriyasi
mudiri, v.f.f.d **I.Yu.Sultanova**